

AI texnologiyalari ijtimoiy tarmoqlardagi mijozlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda Ijtimoiy tarmoqlar va mijozlarning fikr-mulohazalari turizm sanoatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kompaniyalar ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlar bilan aloqa o'rnatib, xizmat sifatini yaxshilash va brend obro'sini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kelajakda sun'iy intellekt va big data texnologiyalari ushbu jarayonni yanada takomillashtirishi kutilmoqda.

Xulosa: Bugungi kunda texnologiyalar turizm biznesining yuklanishini yangilanishda muhim omil sifatida namoyon bo'lib, xavfsizlik tekshiruv sifatini, operatsion jarayon va jarayonni yaxshilashga yordam beradi. Sun'iy intellekt, raqamli to'lov tizimlari, virtual va internetlangan reallik blokcheyn texnologiyalari hamda ma'lumotlar analitikasi katta turizmni yangicha ishlab chiqarishni shakllantirmoqda. Masalan, onlayn bronlash tizimlari va aqlli algoritmlar sayohatchilarga qulay va tezkor ko'rsatishga yordam beradi. Virtual reallik texnologiyalari esa sayyohlarga sayohat oldidan diqqatga sazovor joylar bilan oldindan tanishish orqali yaratmoqda.

Bu resurslarni to'lov tizimlari sayohatchilar uchun qulaylik yaratish, naqd pulsiz hisob-kitob qilish imkonini beradi, esa tranzaksiyalarni saqlashni saqlash. Blokcheyn texnologiyalari esa turistik faoliyatda faollikni ta'minlab, firibgarlik harakatlarini saqlashga xizmat qilmoqda. Turizmدا innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish ishlab chiqarish o'z operatsiyasini ishga tushirish, ishlab chiqarishga moslashtirishni taklif qilish va global foydalanishbardoshlikni tiklash mumkin.

Xulosa qilib, texnologik innovatsiyalar turizm biznesining rivojlanishiga kuchli turtki berib, uni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga xizmat qiladi. Kelajakdagi raqamli transformatsiyani jadallashtirish, IT-texnologiyalarni chuqurroq integratsiya qilish va innovatsion sohalardan keng eksport turizmning yanada jadal rivojlanishiga zamin rivojlanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buhalis, D. va Amaranggana, A. (2015). Xizmatlarni shaxsiylashtirish orqali sayyohlik tajribasini oshiruvchi aqlli turizm yo'nalishlari. Turizmda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari 2015 yilda (377-389-betlar). Springer, Cham.
2. Gretzel, U., Reino, S., Kopera, S. va Koo, C. (2015). Aqlli turizm muammolari. Turizm jurnali, 16(1), 41-48.
3. Abdurahimov .S.N., Xolsaidova D, 2024 The role of innovative technology in the field of tourism. [Multidisciplinary Journal of Science and Technology](#) 347 b
4. Xiang, Z. va Fesenmaier, DR (2017). Katta ma'lumotlar tahlili, turizm dizayni va aqlli turizm . Journal of Destination Marketing & Management, 6(2), 60-62.

YASHIL IQTISODIYOT VA AI: BARQAROR RIVOJLANISH YO'LIDA HRM INTEGRATSIYASI

G'ulomqodirova Ma'mura

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

E-mail: mamurakokanduniversity@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda global iqtisodiyot va ekologik muvozanat o'rtasidagi munosabatlar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka qaratilgan yondashuv sifatida, dunyo bo'ylab strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari bugungi kunda inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda, bu esa iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish va ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlashda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Yashil iqtisodiyot va AI ning inson resurslarini boshqarish (HRM) bilan integratsiyasini ko'rib chiqishimiz ahamiyatlidir. Maqsadimiz esa – AI vositalarini HRM ga joriy etish orqali tashkilotlarda barqarorlikni qanday qo'llab-quvvatlash va xodimlarning tabiatni asrash, ekologik ongli ish tarzini qanday shakllantirish mumkinligini tahlil qilishdir. Ushbu

qarashlar nafaqat kompaniyalarning samaradorligini oshiradi, balki global barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Inson resurlari, sun'iy intellekt, AI, trend, training, yashil, ekologik, barqaror

Kirish: Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish bugungi kunda global miqyosda eng asosiy markazdagi mavzulardan biriga aylangan. Ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof muhitni asrash, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish kabi masalalar, har bir mamlakatning iqtisodiy siyosati va korporativ strategiyasida asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu jarayonda, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi va yashil moliyaviy instrumentlar bozorining kengayishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Amerkalik animatsion rassom, prodyuser Uolt Disney shunday degan: " Vaqt va sharoitlar juda tez o'zgaradi shuning uchun biz doim kelajak uchun yo'naltirilgan maqsadimizni aniq qilib olishimiz kerak ." Bugungi kunda texnologiyaning takomillashuvi har bir sohada o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayapti va 2025- yil o'zgarishlarning transformatsion yili bo'lishi kutilmoqda.

Asosiy qism: Bugungi kundagi eng trendagi mavzulardan biri bu albatta sun'iy intellektidir. Sun'iy intellekt har bir sohaga shiddat bilan kirib kelmoqda. 21-asr bu texnologiyalar asri va texnologiyalar bu - kelajak degani. Shu bilan birga, sun'iy intellekt (AI) va texnologik innovatsiyalar, ushbu o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. AI texnologiyalari, biznes jarayonlarini optimallashtirish, energiya resurslarini samarali boshqarish, va yashil moliya instrumentlarini baholash kabi sohalarda inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, tashkilotlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Hozirda sun'iy intellekt insonlarning ishini olib qo'yadi degan qarashlar mavjud lekin sun'iy intellekt emas balki sun'iy intellektdan unumli foydalana oladigan insonlar tortib olishi mumkin. Biz undan qo'qishimiz kerak emas balki uni chuqurlashtirib o'rganishimiz kerak. Tashkilotlarimizda xodimlarimizning albatta sun'iy intellektga oid bilimlar bo'lishi foydalidir. Tashkilotlarimizni ushbu jarayonda rivojlantirishimiz uchun kadrlar boshqaruvi ushbu o'zgarishlarni qabul qilib, texnologik yutuqlarni insoniy yondashuvlar bilan uyg'unlashtiradigan strategiyalarni ishlab chiqishi zarur.

Yashil iqtisodiyot va sun'iy intellektning HRM bilan integratsiyasi tashkilotlarga uzoq muddatli ekologik barqarorlikni ta'minlashda ko'zga ko'rinarli darajada foyda keltirishi mumkin. AI vositalari quyidagi jihatlarida HRM ni ekologik barqarorlikka yo'naltirishga yordam berishi mumkin:

Yashil ish madaniyatini shakllantirish

– AI asosida tahlillar orqali xodimlarning ekologiya haqida xabardorligini oshirish va ekologik mas’uliyatni rag’batlantirish.

AI orqali resurslarni optimallashtirish

– Energiyani tejash ish tartibini ishlab chiqish, ortiqcha qog’oz sarfini kamaytirish, masofaviy ish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ekologik ma’sulyatsizligini kamaytirish.

Xodimlarni ekota’lim va barqarorlik bo’yicha rivojlantirish – AI yordamida interaktiv kurslar, gamifikatsiya usullari bilan yashil ish odatlariga o’rgatish.

Ekologik natijalarni monitoring qilish va baholash – AI orqali tashkilotning ekologik ta’sirini o’lchash, sharoitni yaxshilash choralari bo’yicha tavsiyalar berish.

Texnologik transformatsiya — bugungi biznes haqiqatidir.

Texnologiya va sun’iy intellekt endi biz uchun orzu emas balki hozirgi biznes haqiqatidir, bu esa tashkilotlarning har bir bosqichda qanday faoliyat yuritishini o’zgartirib belgilab bermoqda. O’zgarishlarning sur’ati davom etmoqda, bu esa texnologiya va sun’iy intellektni kompaniya tomonidan samarali integratsiya qilish tashkilotlarning bugungi shiddatli bozorda raqobatbardosh bo’lib qolishlarini taminlaydi. Bugungi kundagi o’zgarishlar xodimlarning ko’nikmalari va ishlash jarayonlarni strategik qayta ko’rib chiqishni talab qiladi, bu esa kadrlar boshqaruvini ushbu transformatsiyalar qanday qilib korxonani va insonlarni boshqarishni qayta shakllantirayotganini o’rganishga undaydi. Zamonaviy vositalarni joriy etishdan tashqari, kadrlar boshqaruvi xodimlarida innovatsiya, moslashuvchanlikni o’zlashtirishga e’tibor qaratishi kerak ekalogini talab qilmoqda. Shuning natijasida tashkilotlar texnologik yutuqlardan to’liq foyda olishlari mumkin bo’ladi.

Sun’iy intellektni qabul qilishdan uni amaliyotga moslashtirishga o’tish

Shubhasizki, sun’iy intellektning rivojlanishi hayotimizni shiddatli tarzda o’zgartirmoqda. Biz hohlaymizmi yoki yo’q xodimlar endi vazifalarini bajarishda sun’iy intellektdan yordam olishadi. Bugungi kunda texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt kompaniyalar va tashkilotlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, faqat sun’iy intellektni qabul qilish, tushunish yetarli emas. Ularni amaliyotga samarali tarzda moslashtirish va integratsiya qilish kerak, chunki bu jarayon, har bir tashkilotning o’ziga xos xususiyatlariga mos ravishda bajarilishi lozim.



● Foydali AI tajribalarini rag'batlantirish

Korxonada xodimlar sun'iy intellekt vositalaridan foydalana olishlari uchun qulay shart sharoitlar bilan taminlanishi kerak. Xodimlar uchun xavfsiz sinov maydonchasi yaratib berish orqali, masalan, guruhlariga bo'lib kichik loyihalar topshirish AI vositalarini sinab ko'rish imkonini beradi. Tajribalar har qandey insonni mukammal bo'lishga undaydi.

● Xodimlar ko'nikmalarini oshirish

Tashkilotlarda xodimlardan samarali foydalanish ularni doim bilimlarini yangilab borish kompanyaning bugungi raqabatdosh bozorda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. AI haqida asosiy bilimlar, xususiyatlari qanday ishlashi, nima maqsadda foydalana olishlari haqida asosiy bilimlarga ega bo'lishi kerak.

● Maqsadga yo'naltirilgan AI strategiyasini ishlab chiqish

Sun'iy intellektidan foydalanish kompaniya maqsadlari bilan uyg'unlashtirish orqali samaradorligini oshirish mumkin masalan, samaradorlikni oshirish yoki mahsulotlarni innovatsiya qilish, shu bilan birga xavf-xatarlarni e'tiborga olish zaruratini tug'diradi.

● Ish o'rinlari yo'qolishi qo'rquvini bartaraf etish

Xodimlarga sun'iy intellekt endi doim hayotimizning bir qismiga aylanib borishi undan qochib qutila olmasligimizni tushintirishimiz kerak. Endi sun'iy intellekt xodimlarlar AIga o'rinbosar sifatida emas balki hamkor sifatida qarashlari kerak.

Xulosa: Yashil iqtisodiyot va sun'iy intellektning HRM bilan integratsiyasi zamonaviy tashkilotlar uchun muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. AI texnologiyalarining kadrlar boshqaruvida joriy etilishi ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, resurslardan samarali foydalanish va xodimlarning ekologik qarashlarini shakllantirish imkonini beradi. Bugungi kunda texnologik transformatsiya har bir tashkilot uchun zaruratga aylanib, biznes jarayonlarining samaradorligini oshirish, ekologik ta'sirni kamaytirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Sun'iy intellekt HRM sohasida xodimlarning ko'nikmalarini rivojlantirish, ekologik tashabbuslarni rag'batlantirish va yashil iqtisodiyotga mos strategiyalarni ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi. Biroq, bu integratsiya jarayoni o'ziga xos qiyinchiliklarga ham ega. Texnologik infratuzilma, xodimlarning AI ga moslashishi va rahbariyatning yangi strategiyalarga tayyorligi ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omillar hisoblanadi. Shu

sababli, kompaniyalar sun'iy intellektni qabul qilishdan tashqari, uni amaliyotga samarali moslashtirish strategiyalarini ishlab chiqishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot va sun'iy intellektning HRM bilan uyg'unlashuvi kompaniyalar uchun nafaqat ekologik barqarorlik, balki iqtisodiy samaradorlik va innovatsion rivojlanishning yangi bosqichini ham ta'minlaydi. Shunday qilib, AI va yashil strategiyalarni o'zaro uyg'unlashtirish tashkilotlarning kelajakda barqaror rivojlanishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. (1993). *O'zbekiston – bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li*. Toshkent: O'zbekiston.
2. Abdullayev N., Muminov N. (2020). *Yashil iqtisodiyot asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. To'laganov T., Akramov S. (2019). *Sun'iy intellekt va uning iqtisodiyotga ta'siri*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Xodjayev S., Asqarova M. (2021). *Barqaror rivojlanish va innovatsion strategiyalar*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
5. Gulomkodiroya , M. S. qizi. (2024). *A STUDY ON VARIOUS E-RECRUITMENT TOOLS AND ITS EFFECTIVENESS FOR RECRUITMENT. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10(10), 32–34. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.902>
6. Gulomkodiroya Mamura Saydumarxon qizi. (2024). *A STUDY ON SAFETY MEASURES IMPLEMENTED BY LE ROMA GARDENIA RESORT (VRS INFRA) DURING THE COVID-19 PANDEMIC. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(2), 78–84. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/6446>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2023). Rasmiy hujjatlar portali: <https://president.uz>
8. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2022). *Sun'iy intellektning strategik rivojlanishi va inson resurslari*. Toshkent: Davlat nashriyoti.
9. Jo'rayev Q., Rasulov A. (2018). *Korporativ boshqaruv va raqamli transformatsiya*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2023). *Yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari bo'yicha statistik tahlil*. Toshkent: Statistika qo'mitasi nashriyoti.
11. To'rayev O. (2021). *Inson resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Fan va texnologiya.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). *Yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha davlat strategiyasi*. Toshkent: Rasmiy hujjatlar to'plami.

BARQAROR SHAHAR TURIZMI VA IQTISODIYOT: EKOLOGIK VA IQTISODIY MANFAATLARNING UYG'UNLIGI.

Ismoilov Botirjon

Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va
iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi
ismoilovbotirjon3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda shaharsozlik va turistik infratuzilmaning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Turizm infratuzilmasiga investitsiyalar shahar iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatishi, ish o'rinlari yaratish va byudjet daromadlarini oshirish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, turistik klasterlar, raqamli transformatsiya, yashil infratuzilma va barqaror